

**SHOFIRKON TUMANI IJTIMOIY–IQTISODIY RIVOJLANISHIDA
GEODEMOGRAFIK SALOHIYATNING ROLI**

**THE ROLE OF GEODEMOGRAPHIC POTENTIAL IN SOCIAL ECONOMIC
DEVELOPMENT OF SHAFIRKON DISTRICT**

**РОЛЬ ГЕОДЕМОГРАФИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА В СОЦИАЛЬНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ШАФИРКОНСКОГО РАЙОНА**

*Usmonova Maftuna Ibodullo qizi
O'zbekiston milliy univeristeti 2-kurs magistranti*

Kalit so'zlar: Aholi, geodemografiya, mehnat resursi, yosh guruhlari, yosh davrlari, urbanizatsiya, tabiiy ko'payish, mexanik ko'payish, migratsiya, o'lim, tug'ulish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shofirkon tuman ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida hududda yashaydigan aholining ta'siri, aholining yashash tarzi va tuman aholisida sodir bo'ladijan aholi tabiiy takror barpo bo'lish jarayonlarining iqtisodiyotga ta'siri haqida bayon etilgan.

Key words: Population, geodemography, labor resource, age groups, age periods, urbanization, natural reproduction, migration, death, birth.

Annotation: This article describes the impact of the population living in the area on the social and economic development of Shafirkon district, the way of live of the population, and the impact of the natural regeneration of the population on the economy.

Ключевые слова: Население, геодемография, трудовые ресурсы, возрастные группы, возрастные периоды, урбанизация, естественное воспроизводство, миграция, рождение.

Аннотация: В данной статье описано влияние населения, проживающего в районе, на социально-экономическое развитие Шофирконского района, образ жизни населения, а также влияние естественного возобновления населения на экономику.

KIRISH

Aholi deganda ma'lum bir hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. Aholi soni va tarkibida sodir bo'ladijan barcha o'zgarishlar iqtisodiyotning rivojlanishiga, umuman jamiyatning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir hududning, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sonining ortib yoki kamayib borishi, aholining umumiylar tarkibida mehnat yoshidagi aholi guruhining salmog'i, ularning demografik va sifatiy shakllanib borishi, shuningdek, bolalar va mehnat yoshidan yuqori bo'lgan qariyalar salmog'I ham juda muhimdir. Har qanday

hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hududdagi aholi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Shofirkon tuman ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz bevosita hudud aholisi haqida to'xtalishga to'g'ri keladi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yil 1-yanvar holatida tumanda doimiy yashovchi aholi soni 186,5 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,9 ming kishiga yoki 1,6 foizga ko'payganligini ko'rshimiz mumkin. Tuman aholisi umumiyl viloyat aholining 9,2 foizini tashkil etadi.


1-jadval

Shofirkon tuman aholi soni va viloyatdagi o'rni 2023 yil

	Jamiaholisoni	shujumladan:	
		erkaklar	ayollar
Buxoro viloyati	2044,0	1024,9	1019,1
Shofirkon tuman	186,5	94,1	92,4

Manba: Shofirkon tuman statistic axborotnomasi aosida muallif tomonidan tuzilgan.

Aholisining 94,1 ming kishisi yoinki 50,5 foizini erkaklar 92,4 ming kishi yoki 49,5 foizini ayollar tashkil etadi.



1-rasm.Doimiy aholi sonida erkak va ayollarning ulushi 2024-yil 1-yanvar holati bo'yicha

Demak ayollar soni erkaklarga nisbatan kamroq ekanligini kuzatishingiz mumkin.

Shofirkon tuman aholi soni dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak hudud aholisi domiy raishda tabiiy o'sish hisobiga o'sib borayotganligini ammo migratsiya natijasida aholi sonidagi bu o'sish unchalik yuqori emasligini ko'rshingiz mumkin.

2- jadval

Yillar davomida Shofirkon tuman aholisining o'zgarish tendensiyasi

Yillar	Jami aholi (ming.kishi)	Erkaklar (ming.kishi)	Ayollar (ming.kishi)
2018	173,4	87,1	86,3
2019	174,2	87,7	86,5
2020	176,9	89,2	87,7
2021	179	90,2	88,8
2022	183,6	92,5	91,1
2023	185,4	93,6	91,8
2024	186,5	94,1	92,4

Manba: Shofirkon tuman statistik axborotnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu jadvalni tahlil qilib shuni ko'rishingiz mumkinki Shofirkon tumani aholisi yildan yilga ortib borganligini ko'rishingiz mumkin. Shunga mos holatda tuman aholisining jinsiy tarkibida doimiy ravishda erkaklar soni ko'pchilikni tashkil etib kelmoqda . Oxirgi 5 yillik davr oraligida tuman aholisi va jinsiy tarkibi orasidagi bog'liqlik arifmetik progressiya bo'yicha bir biri bilan bog'liqligini kuzatishingiz mumkin.


Har qanday mamlakat yoki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bevosita hududdagi urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shofirkon tuman aholisining asosiy qism qishloq joylarida istiqomat qilib, hududda urbanizatsiya darajasi bor yo'g'i 23 foizni tashkil etadi. Bugungi kunga kelib tuman hududida 1 dona tuman bo'ysinuvidagi Shofirkon shahri va 8 ta shaharcha shakllangan. Eng so'nggi yillarda Iskogare va Undare ovullariga shaharcha maqomi berildi. Ushbu hududlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 172-sonli qaroriga muvofiq obod qishloq dasturi lohiyasiga kiritilgan edi.

5-jadval

Shofirkon tuman aholisining urbanizatsiya darajasi yillar kesimida

	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami aholi	173,4	174,2	176,9	179	182,8	185,4
Qishloq aholisi soni	132.8	133,9	136,1	137,8	140,7	143,1
Ulushi %	76,6	76,9	76,9	77	77	77,2
Shahar aholisi soni	40,6	40,3	40,8	41,2	42,1	42,3
Ulushi %	23,3	23,1	23,1	23	23	22.8

Manba: Shofirkon tuman statistik axborotnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Qishloq va shahar aholisining ulushi


Bunday ko'rinish turibdiki tuman aholisining asosiy qismi qishloqda yashaganligi bilan bog'liq holatda, undagi aholining ham asosiy qismi qishloq xo'jalik sohalarida ish bilan band sanaladi. Tumanda aholining yosh tarkibini tahlil qilar ekansiz aholisinig asosiy qismini mehnatga yaroqli aholi tashkil etishini ko'rishingiz mumkin.

6-jadval

Yosh guruhlari bo'yicha aholining ulushi

Yosh guruhlari	2019	ulushi	2020	ulushi	2021	ulushi
Jami aholi soni	174 208	100,0	176 914	100,0	178 956	100,0
Shu jumladan yoshlari						
0-2	10 351	5,9	10 770	6,1	11 254	6,3
3-6	13 150	7,6	13 334	7,5	13 429	7,5
7-13	19 759	11,4	20 168	11,4	20 554	11,5
14-17	9 918	5,7	10 009	5,7	9 971	5,6
18-24	20 647	11,8	19 813	11,2	19 161	10,7
25-30	20 237	11,6	20 293	11,5	20 155	11,3
31-40	26 046	15,0	26 855	15,0	27 673	15,5
41-50	20 622	11,8	20 879	11,8	20 915	11,7
51-60	18 819	10,8	19 031	10,8	19 066	10,6
61-70	10 509	6,0	11 417	6,5	12 214	6,8
71 yosh va kattalar	4 150	2,4	4 345	2,5	4 564	2,5

Manba: Shofirkon tuman statistik axborotnomasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.



10-rasm. Tuman aholisining mehnat resurslari bo'yicha guruhlanishi

Shofirkon tumanida 2021 yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mehnatga yaroqli aholi soni tarkibida o'zgarishlar vujudga kelgan bo'lib, ya'ni mehnatga yaroqli yoshdan kichik bo'lgan aholining ulushi o'tgan yilga nisbatan 27,8 foizidan 28,2 foizga ya'ni o'tgan yilga nisbatan 0,4 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Mehnatga yaroqli yoshdan kattalar soni 2021 yil 1-yanvar holatiga ko'ra 13,2 foizni tashkil etgan bo'lib o'tgan yilgiga nisbatan (12,7 Foiz) 0,5 foizga ko'payganligini kuzatishimiz mumkin.Bundan ko'rinish turibdiki aholi takibida mehnatga layoqatli yoshdan kichik va mehnatga layoqati yoshdan kattalar sonining ortib borayotganligi, tumanda mehnat resurslarining ham kamayishiga olib kelmoqda.Mehnatga layoqatli aholi soni 2021 yil holatiga ko'ra 58,6 foizni tashkil etmoqda bu o'tgan yilgiga nisbatan mos ravishda 0,9 foizga kamaygan.

Shofirkon tuman aholisining milliy tarkibini tahlil qilar ekanmiz hududda o'ziga xos aholining sotsial rayonlashuvi vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil
O'zbek 94,3 %
%
Rus 0,2 %
Qozoq 0,3 %
Tojik 4,5 %
Boshqa millatlar 0,7 %

2020 yil
O'zbek 94,3 %
Rus 0,2 %
Qozoq 0,3 %
Tojik 4,4 %
Boshqa millatlar 0,8 %

2021 yil
O'zbek 94,4 %
Rus 0,2 %
Qozoq 0,3 %
Tojik 4,4 %
Boshqa millatlar 0,7 %

2022 yil
O'zbek 94,4 %
Rus 0,2 %
Qozoq 0,3 %
Tojik 4,4 %
Boshqa millatlar 0,7 %

Shofirkon tumanida 2019-2021 yillar davomida aholi sonining milliy tarkibida o'zgarishsizligi bilan izohlanadi. Shuningdek rus va boshqa millat vakillarining migrationsion ko'chishi va ulardagi tug'ulish ko'rsatkichlari pastligi kabi omillar ta'sirida ushbu millar vakillari ulushi kamayib bormoqda.

Shuningdek Shofirkon tuman aholisining milliy takibini hududlar miqyosida tahlil qiladigan bo'lsak tumanda har bir millat vakillari o'ziga xos guruh shaklida mahallalar miyosida ajratilgan deyishimiz mumkin. Tuman aholisining milliy tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak tuman aholisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etib, ular jami aholining 94,4 foizini tashkil etadi. Ruslar 0,2 foiz bo'lib ular asosan Tezguzar mfy hududida, Qozoqlar 0,3 foizni tashkil etib ular Vardonze MFY hududining shimoliy qismlarida asosan Churuq ovuli va Chandir MFY ning janubiy qismlarida uchraydi. Tojiklar jami aholining 4,4 % tashkil etib, ular asosan Jo'ynav MfY hududida yashaydi. Ushbu bo'linishga mos holatda tuman aholisining xo'jalik faoliyati ham turlicha shakllangan. Masalan, tumanning shimoliy qismida yashovchi qozoqlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanib aholi tuman markazida ancha uzulib qolgan. Ruslar tumanning markaziy qismida yashaganligi bois ular asosan aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritadilar. Tojiklarning asosiy xo'jalik faoliyati esa dehqonchilik va bog'dorchilikdan iborat.

Tuman aholisining bunday joylashuvi va xo'jalik tarmoqlarining shakllanishi tumanda o'ziga xos bo'lган sotsial rayonlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ushbu rayonlashtirish R.Gachechiladze tavsiya etgan hududlarni sotsial rayonlashtirish mezonlariga mos keladi. Bular:

-aholining etnik-madaniy tafovutlari

Mehnat xarakteri

Ijtimoiy-sinfiy tarkibi

Turmush darajasi

Chegara xususiyatlari

Shahar va qishloq aholisi turmush tarzidagitafovutlar .

Shunga mos holatda Shofirkon tumani aholining milliy tarkibi negizida quyidagi mezonlar asosida tuman hududini rayonlashtirishimiz mumkin.

XULOSA

Shofirkon tumani aholisini o'r ganib tahlil qilish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Shofirkon tuman aholisining geodemografik salohiyati yildan yilga ortib bormoqda. Tuman aholisining yosh , jins, milliy, diniy tarkibida deyarli farq uchramaydi. Tuman aholisining yosh tarkibi bo'yicha tahlil etganda asosiy qismini mehnatga yaroqli yoshdagi aholi guruhi tashkil etmoqda. Ammo so'nggi yillarda tug'ulishning nisbatan kamayishi va aholi tarkibida qariyalar sonining nisbatan ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shofirkon tumanida aholining milliy tarkibiga mos holatda xo'jalik faoliyatining shakllanganligi, shuningdek hudud aholisining asosiy qismi qishloq xo'jalik tarmoqlarida ish bilan bandligi uning asosiy tarkibini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdalova Z, Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. Toshkent 2015. 62 b
2. Asonov G. Nabixonov M, Safarov I, «O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» Toshkent, 1995 yil
3. Ақрамов.З.М. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий ва ижтимоий географияси. Ўқув дастури. Т.1992
4. Buxoro viloyati o'lakashunoslik atlasi.Toshkent 2014
5. Buxoro viloyati statistika axborotnomasi 2018-2023 yy